



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
QO‘QON UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**  
Qo‘qon universiteti direktori,  
  
“RB” may 2026-yil



**10.00.13 – QIYOSIY VA CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIK  
MUTAXASSISLIGI FANLARIDAN TAYANCH DOKTORANTURAGA  
KIRUVCHILAR UCHUN  
DASTUR**

**Qo‘qon – 2026**

Qo‘qon universiteti “Filologiya” kafedrası tomonidan ishlab chiqildi

**Tuzuvchilar:**

N.Xoshimova – Qo‘qon universiteti “Jahon tillari” kafedrası dotsenti.

G.Umarjonova – Qo‘qon universiteti “Jahon tillari” kafedrası dotsenti;

**Taqrizchilar:**

V.Vositov – Qo‘qon universiteti andijon filiali professori.

D.Egamnazarova – Qo‘qon universiteti andijon filiali dotsenti;

## **Kirish**

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 1-bob 12-moddasida ta’kidlanganidek: “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o‘rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta’minlaydi.”

Darhaqiqat, 10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga talabgorlar uchun kirish imtihonini o‘tkazish tartibi va mezonlarini ishlab chiqishda ham mutaxassislikni chuqur o‘rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni o‘zining asosiy maqsadi qilib belgilagan talabgorlarni tanlash eng muhim vazifa bo‘lmog‘i lozim. Aqlan yetuk, salohiyatli va yuqori malakaga ega ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmog‘i zarur.

O‘zbekistonda yangi uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilayotgan davr talablariga javob beradigan mutaxassis-kadrlarni tayyorlash jarayoni an’anaviy ilmiy merosni o‘rganish, ilm-fan yutuqlarini chuqur o‘zlashtirish, nazariya va amaliyot uyg‘unligiga erishishni talab qiladi.

Dasturning maqsadi – tayanch doktoranturada o‘qishga talabgorlarning ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishga layoqatini aniqlash hamda o‘tkaziladigan imtihon mazmuni bilan tanishtirishdan iborat.

Dasturning vazifasi – talabgorlarning o‘z mutaxassisligi sohasida ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat olib borish bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlashga qaratilgan.

Mazkur imtihon dasturi talabgorlarning quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlashga qaratilgan savollarni o‘z ichiga oladi:

– Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik (komparativistika);

- Lingvistik tipologiya;
- Chog‘ishtirma (kontrastiv) tilshunoslik.

### **Talabgorlarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar**

Ixtisoslik fanidan imtihon topshiruvchi talabgorlar quyidagilarni bilishi va ularga ega bo‘lishi kerak:

- chog‘ishtirma tilshunoslik fanining fanlararo aloqasi va terminologik apparati (metatil, til universalialari, qiyoslash turlari va h.k.) haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, tipologiya va chog‘ishtirma tilshunoslikning fundamental masalalari bo‘yicha nazariy bilim asoslarini egallashi;
- zamonaviy lingvistik metodlar va metodologiyani, turli maktablarda qiyosiy-tipologik muammolarning talqin qilinishini bilishi;
- ikki yoki undan ortiq tilni barcha sathlarda (fonologik, morfologik, sintaktik, semantik) chog‘ishtirib tahlil qila olishi, izomorflik va allomorflik xususiyatlarni aniqlay olishi;
- qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik sohasida ilmiy izlanish olib borish, lingvistik adabiyotlar va til korpuslaridan samarali foydalana bilish malakalariga ega bo‘lishi kerak.

## **ASOSIY QISM**

### **1. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik (komparativistika)**

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning obyekti – o‘zaro qarindoshlik munosabatidagi tillar. Maqsadi: qarindosh tillar evolyutsiyasini sinxron va diaxron kontekstda tasvirlash; til birliklaridagi gipotetik mosliklar va qonuniyatlarni (fonetik, leksik-semantik, grammatik) aniqlash; bobotilni va uning rivojlanish bosqichlarini rekonstruksiya qilish; tillarning geneologik tasnifida til oilalari va makrooilalar tarkibini belgilash. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning G‘arbiy Yevropa va Rossiyada vujudga kelishi (F.Bopp, R.K.Rask, Ya.Grimm, A.X.Vostokov), XIX asr o‘rtalaridagi rivoji (F.Pott, T.Benfey, G.Kursius, A.Kun, A.Shleyxer). Qiyosiy-tarixiy metod – lingvistik metodlarning eng asosiysi.

## **2. Lingvistik tipologiya**

Tipologiyaning obyekti – qarindosh va qarindosh bo‘lmagan tillar. Maqsadi: tillar o‘rtasidagi struktur o‘xshashlik va farqlarni tasvirlash hamda tasvir metodologiyasini ishlab chiqish; til universalialarini aniqlash; tillarni turlariga ko‘ra tasniflash; struktur-tipologik va genetik-tipologik xususiyatlarni belgilash. Tillarning tipologik tasnifi: agglyutinativ, flektiv, amorf (izolyatsiyalovchi) va polisintetik tillar. Tipologik metodlar: genetik metod, sof tipologik metod va universalialar metodi; ularning qiyosiy-tarixiy metoddan farqi.

## **3. Chog‘ishtirma (kontrastiv) tilshunoslik**

Chog‘ishtirma tilshunoslikning obyekti – qarindosh yoki qarindosh emasligi va tipologik xarakteristikasidan qat’i nazar tillarni o‘rganish. Maqsadi – ikki yoki undan ortiq tilni barcha qatlamlarda (fonologik, morfologik, sintaktik va semantik) izomorflik va allomorflik xususiyatlarini aniqlash uchun chog‘ishtirib o‘rganish. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida turkiy tillarning chog‘ishtirib o‘rganilishi. Chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimaning o‘zaro munosabati. Chog‘ishtirma tilshunoslik metodlari: tavsifiy metod, statistik tahlil. Chet tillarni o‘qitishda chog‘ishtirma tilshunoslikning lingvodidaktik ahamiyati, tillararo interferensiya va transfer.

## **4. Tilshunoslik tahlil metodlari**

Deskriptiv lingvistikaning tahlil metodlari: distributiv tahlil metodi, transformatsiya metodi. Struktur lingvistika metodlari: komponent tahlil metodi, bevosita tashkil etuvchilarga ajratish metodi, paradigma usullari, oppozitsiya usuli. Statistik (kvantitativ) tahlil. Lingvistikada maydon (pole) nazariyasi. Zamonaviy davrda til korpuslari, kognitiv yondashuv va konseptual tahlil asosidagi chog‘ishtirma tadqiqotlar.

## **5. Til sathlari bo‘yicha chog‘ishtirma tahlil**

O‘rganilayotgan xorijiy til va o‘zbek tilining fonologik (fonemalar tizimi, bo‘g‘in, urg‘u), morfologik (ot va fe‘l kategoriyalari, so‘z yasalishi), sintaktik (gap tuzilishi, so‘z tartibi, so‘z birikmalari) va leksik-semantik (so‘z ma’nolari hajmi,

leksik lakunalar, muqobilsiz leksika, frazeologizmlar, paremiologiya, milliy-madaniy komponent) sathlarda chog‘ishtirma tahlili.

## **IMTIHON SAVOLLARI**

1. Dunyo tillarining geneologik tasnifi
2. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning maqsad va vazifalari
3. Qiyosiy-tarixiy metodning mohiyati
4. Bobotil (prayazik) va uni rekonstruksiya qilish masalasi
5. Til oilalari va makrooilalar tarkibini belgilash
6. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning G‘arbiy Yevropa va Rossiyada vujudga kelishi (F.Bopp, R.K.Rask, Ya.Grimm, A.X.Vostokov)
7. F.Pott, T.Benfey, G.Kursius, A.Kun va A.Shleyxer ta’limotlari
8. Qarindosh tillarda fonetik, leksik-semantik va grammatik mosliklar hamda qonuniyatlar
9. Sinxron va diaxron tilshunoslikning farqi
10. Lingvistik tipologiyaning maqsad va vazifalari
11. Til universalialari terminining mohiyati va universalialar turlari
12. Tillarning tipologik tasnifi
13. Agglyutativ tillarning o‘ziga xos xususiyatlari
14. Flektiv tillarning o‘ziga xosliklari
15. Amorf (izolyatsiyalovchi) tillarning o‘ziga xosliklari
16. Polisintetik tillarning o‘ziga xosliklari
17. Tipologik metodlar: genetik metod, sof tipologik metod va universalialar metodi
18. Tipologik metodning qiyosiy-tarixiy metoddan farqi
19. Tillarning struktur-tipologik va genetik-tipologik xarakteristikasi
20. Chog‘ishtirma tilshunoslikning obyekti va predmeti
21. Chog‘ishtirma tilshunoslikning nazariy va amaliy vazifalari
22. Izomorflik va allomorflik hodisalari
23. Chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimaning o‘zaro munosabati
24. Chog‘ishtirma tilshunoslik metodlari (tavsifiy, statistik)

25. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida turkiy tillarning chog'ishtirib o'rganilishi
26. O'rta Osiyoda chog'ishtirma tilshunoslik bo'yicha yaratilgan dastlabki asarlar
27. Chet tillarni o'qitishda chog'ishtirma tilshunoslikning lingvodidaktik vazifalari va ahamiyati
28. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik va chog'ishtirma tilshunoslik o'rtasidagi farq
29. Tillararo interferensiya va transfer hodisalari
30. Chog'ishtirma tilshunoslikning nazariy asoslarini yaratishda hissa qo'shgan tilshunolar (V.N.Yartseva, O'.Q.Yusupov va boshqalar)
31. O'rganilayotgan xorijiy til va o'zbek tilida fonologik sathning chog'ishtirmasi
32. Unli va undosh fonemalar tizimining chog'ishtirma tahlili
33. Bo'g'in tuzilishi va urg'uning chog'ishtirmasi
34. O'rganilayotgan xorijiy til va o'zbek tilida ot kategoriyasining izomorflik va allomorflik xususiyatlari
35. O'rganilayotgan xorijiy til va o'zbek tilida fe'l kategoriyasining tipologik xususiyatlari
36. Grammatik kategoriyalar chog'ishtirmasi (kelishik, son, aniqlik-noaniqlik)
37. So'z yasalishining chog'ishtirma tahlili
38. Sintaktik sath: gap tuzilishi va so'z tartibining chog'ishtirmasi
39. So'z birikmalarining chog'ishtirma tahlili
40. Leksik-semantik sathning chog'ishtirmasi
41. Chet tili va o'zbek tilida so'z ma'nolari hajmi va shakli o'rtasidagi farqlar
42. Leksik lakunalar va muqobilsiz leksika
43. O'rganilayotgan xorijiy til va o'zbek tilida frazeologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari
44. O'zaro yaqin tillar paremiologiyasidagi o'xshash va farqli jihatlar
45. Milliy-madaniy komponent va konnotatsiya masalasi
46. Deskriptiv lingvistikaning tahlil metodlari
47. Distributiv tahlil metodi
48. Transformatsiya metodi
49. Komponent tahlil metodi
50. Bevosita tashkil etuvchilarga ajratish metodi

51. Oppozitsiya usuli va paradigma usullari
52. Struktur lingvistika metodlari
53. Statistik (kvantitativ) tahlil metodining o‘ziga xosliklari
54. Lingvistikada maydon (pole) nazariyasi
55. Til belgisining tabiati va til sathlari
56. Sistema va struktura tushunchalari; til sathlari iyerarxiyasi
57. Til va tafakkur; lingvistik nisbiylik nazariyasi
58. Til korpuslari asosidagi zamonaviy chog‘ishtirma tadqiqotlar
59. Kognitiv yondashuv va chog‘ishtirma tilshunoslik
60. Konseptual metafora va uni chog‘ishtirma o‘rganish
61. Diskurs va matn sathida chog‘ishtirma tahlil
62. Jahon tilshunosligidagi yangi yo‘nalishlar va ularning chog‘ishtirma tilshunoslikdagi talqini

## **DOKTORANTURAGA KIRUVCHILARNI BILIMINI BAHOLASH MEZONI**

| <b>№</b> | <b>Doktoranturaga kiruvchining bilim darajasi</b>                                                                                                                                                    | <b>Ball</b>   |
|----------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------|
| <b>1</b> | Nazariy jihatdan chuqur bilimga ega bo‘lib, mustaqil mushohada yuritib, masalaning mohiyatini tushunib, bu haqda chuqur tasavvurga ega, ilmiy jihatdan asoslagan, qo‘shimcha manbalardan foydalangan | <b>90–100</b> |
| <b>2</b> | Berilgan masala haqida mustaqil mushohada yuritgan, uning mohiyatini tushunib, u haqda tasavvurga ega bo‘lgan, masalaning o‘zi bilan cheklanib, qo‘shimcha manba va adabiyotlardan foydalana olmagan | <b>70–89</b>  |
| <b>3</b> | Masalaning mohiyatini tushunib, u haqda tasavvurga ega bo‘lgan, savolga qisman javob bera olgan, qo‘shimcha adabiyotlardan foydalana olmagan                                                         | <b>60–69</b>  |
| <b>4</b> | Berilgan masala haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmagan, savolga qisman javob yozgan, manbalarda bor ma’lumotlarni to‘liq keltirmagan                                                                   | <b>0–59</b>   |

Kirish imtihonini baholash uchun maksimal baho – 100 ball etib belgilanadi. Jami 4 ta savolga 100 ball beriladi, shundan: 1-savolga javob – maksimal 25 ball; 2-savolga javob – 25 ball; 3-savolga javob – 25 ball; 4-savolga javob – 25 ball.

Har bir savol bo'yicha javoblar nazariy va amaliy bog'liqlikda yoritilganligi, mustaqil ilmiy mushohada, nom va ilmiy terminlarni bilish darajasi, keltirilgan faktlarning ilmiy tahlili hamda fikrning aniq va izchil ifodalanishi mezonlari asosida baholanadi. Barcha savollarga to'liq, ilmiy adabiyotlarga tayangan holda javob berilgan talabgorga a'lo baho qo'yiladi.

*ESLATMA: Doktoranturaga kirish imtihonlari jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan talabgorlar yakuniy baholar e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kun muddat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilishga haqli.*

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. OTM uchun darslik. – Toshkent, 2013.
4. Yo'ldoshev I., Muhamedova S., Sharipova G'., Majidova R. Tilshunoslik asoslari. Darslik. – Toshkent, 2013.
5. Dadabaev X.A., Xolmanova Z.E. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. – Toshkent: Universitet, 2015.
6. Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2008.
7. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. – Andijon, 2006.
8. Safarov Sh. Semantika. – Toshkent, 2013.
9. Xojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2005.
10. Lutfullaeva D., Xudoyberganova D. Antroposentrik tilshunoslik yo'nalishlari. – Toshkent, 2016.
11. Rafiev A. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. – Toshkent, 2004.
12. Murodova N. O'zbek adabiy tili va shevalar leksikasining qiyosiy tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2005.
13. Yusupov O'.Q. Contrastive Linguistics of English and Uzbek.
14. Азизов А.А. Сопоставительная грамматика русского и узбекского языков. Морфология. – Ташкент: Фан, 1999.
15. Ярцева В.Н. Контрастивная лингвистика. – Москва, 1981.
16. Абдуазизов А.А. Общее языкознание. – Ташкент, 2012.
17. Кодухов В.И. Общее языкознание. – Москва: Либроком, 2012.
18. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk (turkiy tillarning chog'ishtirma manbai).

## **INTERNET MANBALARI**

1. <http://www.ziyonet.uz>
2. <http://www.kutubxona.uz>
3. <http://www.philology.ru>
4. <http://www.gumer.info>
5. <http://www.lingvotech.com>